



**JIZZAX VILOYAT STATISTIKA  
BOSHQARMASI**



**JIZZAX VILOYAT SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR - FEVRAL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




### Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-fevral oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1198,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-fevralga oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,1 % ni tashkil etdi.




#### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'rishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 9,7 % ga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 12,2 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	785,7	1 496,8	711,1
Sharof Rashidov tumani	321,0	1 188,9	867,9
Zomin tumani	1 360,4	1 022,9	-337,5
Jizzax shahri	743,7	971,0	227,3
Zafarobod tumani	1 652,3	1 625,7	-26,6

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida viloyat jami hajmidagi eng yuqori fizik hajmi o‘shishining Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 321,5 % ni Zomin tumani 65,3 % va G‘allaorol tumani 52,5 % ni tashkil etdi.

26,7 %


216,1 %

2022- yil

2021- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-fevral oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1115,3 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,1 % ini tashkil etdi.


2021-yil yanvar-fevral

89,5 %

2022-yil yanvar-fevral

93,1 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni ( 2021-yilning yanvar-fevral oylarida – 1,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 18,6 % ( 4,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 17,8 % ( 14,9 %) va quyi texnologiyalisi – 56,7 % ( 69,1 %)ni tashkil etdi.







Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 18,6 % ( 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 68,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,3 % ( 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 42,3 % ( 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 10,4 % ( 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,0 % ( 2021- yilning yanvar –fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 174,5 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	2 498,0	9 280,0	6 782
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	10 548,2	11 031,4	483,2
Paxta chigiti, t.	3 374,0	14 561,0	11 187,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	740,3	825,0	84,7
Paxta linti, t.	246,0	601,0	355,0
Trikotaj polotnolar, t.	588,0	304,0	-284,0

2022- yilning yanvar-fevral oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 11,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni ( 4,6 % oshgan), 9,3 ming tonna paxta tolasi ( 33,9 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 0,8 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i ( 11,4 % ga ) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Yumshoq bug'doy va spelta uni

104,6 %


Paxta tolasi, t.

66,1 %


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 51,7 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,3 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 117,3 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 16,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 76,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,7 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 148,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 124,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 124,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.





### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 2,2 % ni tashkil etgan. 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,03 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 0,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 86,4 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 38,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 24,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 455,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 88,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 %, fizik hajm indeksi 109,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 51,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 241,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 36,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 87,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni, fizik hajm indeksi 97,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 47,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 23,4 % ga oshgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi 186,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 39,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,1 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,2 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	36 635,7	42 717,1	6 081,4
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	6,6	2,2	-4,4
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	18 353,8	17 906,6	-447,2

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini) tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-fevral	2022-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	10 970,5	11 251,9	281,4
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	3 594,8	4 120,5	525,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 2,4 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 5,9 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 474,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 135,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 39,6 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-fevral

27,6%

2022-yil  
yanvar-fevral

21,7%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-fevral

72,4%

2022-yil  
yanvar-fevral




78,3%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 21,7 % (2021- yil yanvar-fevral oylarida 27,6 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 28,2 % ni va Zarbdor tumani 12,4 % ni, Do'stlik tumani 13,3 % ni hamda Paxtakor tumani 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zarbdor tumanida (156,9 %), Sharof Rashidov tumanida (141,6 %) hamda G'allaorol tumanida (114,1 %), qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 23,5 % shuningdek, G'allaorol tumani 34,5 %, ni, hamda Arnasoy tumani 9,2 % ni tashkil etdi.*





## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 22,2 % shuningdek, G'allaorol tumani 42,2 %, Arnasoy tumani 10,3 % ni tashkil etdi.

**190,7** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-fevral

**336,9** mlrd. so'm



2021- yil yanvar-fevral

**371,4** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-fevral



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 28,2 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 13,3 % ni, Zarbdor tumani esa 12,4 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

### Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 30,2 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 15,5 % ni, Do'stlik tumani esa 14,1 % ni tashkil etdi.

#### Jizzax viloyati

2020- yil

779,2 mlrd. so'm

2021- yil

831,1 mlrd. so'm

2022- yil

1198,3 mlrd. so'm



2020- yil

104,6 %

2021- yil

102,2 %

2022- yil

106,1 %

Jizzax viloyati

106,1

1198,3

Jizzax shahar

107,2

361,7

Arnasoy

80,7

45,2

Baxmal

102,2

11,6

G'allaorol

206,8

185,2

Sharof Rashidov

94,7

48,9

Do'stlik

116,1

169,1

Zomin

92,2

35,5

Zarbdor

109,6

47,0

Zafarobod

161,8

158,7

Mirzacho'l

107,3

23,2

Paxtakor

103,7

79,5

Forish

108,6

25,7

Yangiobod

44,1


6,8

FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (1 978,2 ming so'm), Zafarobod (3 110,4 ming so'm) tumanida hamda Do'stlik (2 519,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (839,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 332,5 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 608,7 ming so'mni, Arnasoy tumanida – 926,2 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 924,6 ming so'mni tashkil etdi.

### Jizzax viloyati



o'sish sur'ati

ming. so'm

## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3770 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1135 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 30,1 % i ) Jizzax shahriga, 681 tasi (18,1 %) Sharof Rashidov tumaniga, 384 tasi ( 10,2 %) G'allaorol tumaniga, 281 tasi ( 7,4 %) Zomin tumaniga va 192 tasi (5,1 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil  
84 dona

2021- yil  
163 dona

2022- yil  
188 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil  
2 851 dona

2021- yil  
3 550 dona

2022- yil  
3 770 dona